

# Faollashtirilgan kultoshqol chiqindilaridan yangi turdagi yuqori to'ldirilgan qo'shimchali sementlar olish texnologiyasi

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida prof. M.Iskandarova rahbarligida Yangi-Angren IES faollashtirilgan kultoshqol chiqindilari bilan modifikatsiyalangan qo'shimchali va sulfatbardosh sementlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va natijalarni sement sanoatida qo'llash borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Institut olimlari tomonidan faollashtirilgan kultoshqol aralashmasidan foydalanib yuqori to'ldirilgan qo'shimchali sementlarning yangi turlarini ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori iqtisodiy va ekologik samaradorlikka ega bo'lib, jahonda o'xshashi yo'q texnologiyalar qatoriga kiradi.



Yuqori to'ldirilgan yangi turdagi sementlarning qotish jarayonida kechadigan struktura hosil qilish, yuqori fizik-mexanik va qurilish-texnik xossalarga ega bo'lgan sun'iy konglomerat shakllanishida o'rnatilgan qonuniyatlar bog'lovchi materiallar kimyoviy texnologiyasi fanini yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan natijalar bilan boyitadi.